

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**ISMAILOVA XURLIMAN NAJIMATDINOVNA**

**MIXAIL SHOLOXOVNING O‘ZBEK ADABIYOTIGA TA’SIRI MASALASI:  
USLUB VA JANR UYG‘UNLIGI  
(O.Yoqubov, Sh.Xolmirzayev, O‘.Umarbekov ijodi asosida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va  
tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Urganch - 2023**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Table of contents of the abstract of the doctoral dissertation (PhD) in  
philology sciences**

**Ismailova Xurliman Najimatdinovna**

Mixail Sholoxovning o'zbek adabiyotiga ta'siri masalasi: uslub va janr uyg'unligi(O.Yoqubov, Sh.Xolmirzayev, O'.Umarbekov ijodi asosida)..... 3

**Исмаилова Хурлиман Нажиматдиновна**

Влияние Михаила Шолохова на узбекскую литературу: стиль и жанровая гармония(на основе творчества О.Якубова, Ш.Холмирзаева, У.Умарбекова)..... 25

**Ismailova Khurliman Najimatdinovna**

The influence of Mikhail Sholokhov on Uzbek literature: style and genre harmony (based on the works of O.Yakubov, Sh.Kholmirzaev, U.Umarbekov).....49

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

**Список опубликованных работ**

**List of published works.....54**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**ISMAILOVA XURLIMAN NAJIMATDINOVNA**

**MIXAIL SHOLOXOVNING O‘ZBEK ADABIYOTIGA TA’SIRI MASALASI:  
USLUB VA JANR UYG‘UNLIGI  
(O.Yoqubov, Sh.Xolmirzayev, O‘.Umarbekov ijodi asosida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va  
tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Urganch – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3492 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.fil-ik.urdu.uz](http://www.fil-ik.urdu.uz)) va «Ziyonet» axborot ta’lim portaliga ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Botirova Shahlo Isamiddinovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Ermetova Jamila Ismailovna,**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Boboxonov Mavlon Raxmatullayevich,**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat chet tillar instituti**

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy. Tel.: (99862)224-67-00; faks: (99862)224-67-00, e-mail: [www.fil-ik.urdu.uz](http://www.fil-ik.urdu.uz)).

Dissertatsiya bilan Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy. Tel.: (99862)224-67-00.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ da tarqatildi.  
(2023-yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**Z.D.Dusimov,**  
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**S.S.Atajanov,**  
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
(PhD)

**A.D.Urazboyev,**  
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi v.b., filologiya fanlari  
doktori (DSc), dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotida tabiiy ravishda adabiy ta'sirlar sintezi yuzaga kelishi turli janrlar poetikasiga ta'sir qildi, ularga janr va kompozitsion jihatdan o'ziga xoslik berdi. Qadimgi yunon madaniyati va boshqa milliy adabiyotlarda vujudga kelgan adabiy stereotiplar semiotik metaforalarning yangilanishiga yordam berdi. Insonni bilish tushunchasi o'z-o'zidan paydo bo'lgani yo'q, balki asrlar davomida shakllangan va boshqa adabiyotlar qatori rus adabiy an'analari bilan oziqlangan poetik talqinlar ta'sirida rivojlandi. XX asrning 50-yillarida boshlangan poetik modifikatsiya hodisasi hikoya, qissa va roman janrlarining syujet xususiyatlari va ifodali unsurlarini yangilashda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu jarayonda g'oyaviy-konseptual nuqtayi nazarga asoslangan shakl va mazmun uyg'unligi muhim omil hisoblanadi. Bu o'zgarishlar natijasida jahon adabiyoti an'alaridan oziqlangan rus adabiyotining o'zbek adiblariga ta'sir doirasi kengaydi.

Dunyo bugun global muammolar girdobida badiiy an'analarni muntazam yangilashga diqqat qaratmoqda. Yozuvchilar poetik matritsa sistemasini azal va abad orasida umr kechirayotgan inson fenomenini tahlil qilishga bel bog'lagan. Bugun bir tizimdan – ikkinchi bir tizimga o'tishda badiiy idrok tarixiy an'analarni yangilab, ulardan muhim deb bilgan omillarni adabiy asar arxitektonikasida sinab ko'rishga odatlandi. Jamiyatdagi fikr taraqqiyoti va ma'naviy qudrat badiiy asarlarning syujetida aks etayotgan hayot falsafasini hamda e'tiqod birligining uyg'unlashuviga qaratilmoqda. Natijada, hikoyadan qissaga va romanga o'tib turuvchi tasvir yo'sinlarida tafakkurni yuksaltirishga qaratiladigan muhim jihatlari sintezi umumlashma hosil qilib, yozuvchining intellektual salohiyatining yanada rivoj topishiga zamin hozirlamoqda. Odamzod, odatiy yashash tarzidan tabiiy va o'zi bilgan aqidalarga bo'ysunib hayot kechirishi badiiy asarlarda isbotlab berilgan. Adabiy ta'sirning ijodiy o'ziga xosligi o'zbek yozuvchilarining poetik izlanishlarida yaqqol namoyon bo'layotgani sir emas.

Hozirgi o'zbek adabiyotshunosligidagi adabiy ta'sir an'alarida rus yozuvchisi M.Sholoxovning xizmatlari beqiyos ekanligini e'tirof etish joiz. Badiiy pafos va uning psixoanalitik qirralari O.Yoqubov, Sh.Xolmirzayev, O'.Umarbekov ijodida yanada ko'zga tashlanadi. Ijod ruhiyatida yuzaga kelayotgan shaxs va jamiyat birligi xarakter shakllanishiga turtki beradi. Zero, "...adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu, avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q"<sup>1</sup>. Haqiqatan ham, rus yozuvchisi M.Sholoxov XX asrning 30-yillaridan to umrining oxiriga qadar yozgan asarlarida gumanistik g'oyalarni tarannum qilib, urush va uning dahshatli oqibatlarini hikoya va roman janrida betakror uslubda idrok eta oldi.

---

<sup>1</sup>Ш.М.Мирзиёев. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир // Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 3 августдаги Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси. <https://kknews.uz/uz/1715.html>

O‘zbek yozuvchilaridan O.Yoqubov, Sh.Xolmirzayev va O‘.Umarbekovning poetik talqinida rus va jahon adabiyoti namoyondalarining ta’sirini har tomonlama chuqur o‘rganish, ularning o‘ziga xos uslubini aniqlash, poetik modifikatsiya komponentlarining sintezini asoslash mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son Farmoni, 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4958-son Farmoni, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni, 2017-yil 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PQ-3271-son Qarori, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarori, 2019-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-son Qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Mavzuning o‘rganilish darajasi.** Jahonning taniqli faylasuf-adabiyotshunoslari izlanishlarida badiiy adabiyotning ta’sir doirasi, poetik o‘ziga xosligiga oid ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Aristotelning “Poetika” asari adabiy turning epik janrlariga doir tadqiqotlarning boshlang‘ich debochasi hisoblanadi. Rus adabiyotshunosligida A.A.Potebnya, D.N.Ovsyaniko-Kulikovskiy, L.S.Vigotskiy, M.M.Baxtinning psixanalitik; V.Shklovskiy, V.V.Vinogradov, V.M.Jirmunskiy, Y.N.Tinyanov, B.V.Tomashevskiy, G.O.Vinokur, Klod Levi-Stross, R.Bart, Y.Lotman, D.S.Lixachev, F.Shleyermexer, V.Diltey, M.Xaydegger, G.G.Gadamer kabi olimlarning monografik va ixcham ilmiy izlanishlarida poetik uslub va janr masalasi atroflicha yoritilgan<sup>2</sup>. Ushbu ilmiy-nazariy tadqiqotlarda, jumladan, M.Sholoxovning poetik olami va ijodkor shaxsi haqida, shuningdek, mahorati va uslubining ayrim qirralari xususida so‘z boradi.

O‘zbek adabiyotshunoslaridan I.Sultonov, M.Qo‘shjonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, Y.Solijonov, A.Rasulov, B.Nazarov, H.Umurov, D.To‘raev,

---

<sup>2</sup>История русского литературоведения. – Москва: 1980; П.А.Сакулин Филология и культурология. – Москва: 1990; Ю. Борев Искусство интерпретации и оценки. – Москва: 1981; Ш. Сент-Бёв Литературные портреты. Критические очерки. – Москва: 1970; Р.Барт Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – Москва: 1981; Его же: Введение в структуральный анализ повествовательных текстов // Зарубежная эстетика и теория литературы XIX– XX вв. – Москва: 1987; Ю.М.Лотман Анализ поэтического текста. – Ленинград: 1972; Г.Г. Гадамер Актуальность прекрасного. – Москва: 1991.

M.Xolbekov, Q.Yo‘ldoshev, D.Quronov, U.Jo‘raqulov, I.Yoqubov, B.Karimov, V.Alimasov, Sh.Doniyorova, A.K.Avazova, U.Rasulova<sup>3</sup> kabi olim va munaqqidlar tomonidan adabiy ta‘sir va ijodiy uslubning janr va uslubiy xususiyatlari bo‘yicha maxsus tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, M. Sholoxovning o‘zbek nasri taraqqiyotidagi roli qiyosiy kontekstda ko‘rib chiqilgan ishlar uchramaydi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Yangi o‘zbek adabiyoti va adabiy tanqid” (2018-2022) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** rus yozuvchisi M.Sholoxovning poetik izlanishlari: hikoya va romanlaridagi mahorat, janriy-kompozitsion yaxlitlik, davr muammosi, zamon talqinini ochib berish, uning o‘zbek adabiyotiga ta‘siri masalasini O.Yoqubov, Sh.Xolmirzayev, O‘.Umarbekov singari yozuvchilarning poetik izlanishlari, badiiy mahorat va ijodkor konsepsiyasidagi o‘ziga xosligini aniqlashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

individual ijodiy uslubning ta‘sirini o‘rganish, shuningdek, rus yozuvchisi M. Sholoxov asarlarining syujet va kompozitsion yaxlitligini tahlil qilish, jahon va o‘zbek adabiyotidagi o‘zgarishlarning o‘zbek adiblariga ta‘siri hamda xronotop muammosini M. Sholoxov ijodi kontekstida o‘rganish;

O.Yoqubov badiiy tafakkuri ko‘lamini aniqlashga e‘tibor qaratgan holda, ilg‘or jahon an‘analari asosida yozilgan hikoyalarning milliy madaniyatga ta‘sirini va M.Sholoxovning realistik uslubiga xos badiiy unsurlar tizimini aniqlash;

M.Sholoxov an‘analarining tabiat va jamiyat munosabatlariga bag‘ishlangan Sh.Xolmirzayev hikoyalarida aks etishini asoslash, shuningdek, O.Yoqubov, Sh.Xolmirzayev, O‘.Umarbekovlar nasridagi psixologizm muammosini anglash, ularning ijodiy konsepsiyasi evolyutsiyasida mahorat va tajribaning muhim jihatlariga e‘tibor qaratish;

Badiiy kompozitsiyaning xronotopga oid jihatlarini O.Yoqubov, Sh.Xolmirzayev, O‘.Umarbekovlar ijodi misolida ifodalashning ahamiyatini asoslash.

---

<sup>3</sup>И.Султонов Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986; И.Султонов Навоийнинг қалб дафтари. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010; М.Қўшжонов Ижод масъулияти, – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981; М.Қўшжонов Моҳият ва бадиият. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977; О. Шарафиддинов Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004; Б.Саримсоқов Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: Шарқ, 2004; Б.Назаров. Ҳаётийлик – безавол мезон. – Тошкент: Фан, 2008; Й. Солижонов XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси. Филол. фан. док... дисс. – Тошкент, 2002; Й. Солижонов Ҳақиқатнинг синчков кўзлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009; А.Раҳимов Роман санъати. – Фарғона: Фарғона нашриёти, 2015; Ҳ.Умутов. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Шарқ, 2002; Н.Раҳимжонов. Бадиият – бош мезон. – Тошкент: Академнашр, 2016; Н.Раҳимжонов. Адиб эстетикаси. – Тошкент: Фан, 2017; Д. Қуროнов Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ меъроси нашриёти, 2004; Д. Қуროнов Чўлпон ҳаёти ва ижодий мероси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997; Д. Қуროнов Адабиётшунослик назарияси. – Тошкент: Академнашр, 2018; У.Қосимов. Адабиётнинг ҳаётбахш кучи. – Тошкент: ЎзМУ кутубхонаси нашриёти, 2008; Б.Каримов. Адабиётшунослик методологияси. – Тошкент: Мухаррир, 2011; Б.Каримов Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил ва талқин. – Тошкент: Фан, 2016.; Ш.Дониёрова Омон Мухтор ижодида янги талқинлар. –Т.: “Turon zamin ziyo”. 2017. –Б.112.;У. Расулова. XX аср ўзбек қиссачилиги(поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари). Филол.фан.док.дисс. –Т.: 2020. –Б.249.

**Tadqiqot obyekti** sifatida rus adibi M.Sholoxovning hikoyalari va “Tinch Don” romani hamda O.Yoqubovning “Adolat manzili” romani, Sh.Xolmirzayev, O‘.Umarbekovning qator hikoyalari olindi. Shuningdek, badiiy psixologizm va ijodkor fitrati hamda davr muammosini biografik va qiyosiy tipologik yondashuvlar nuqtayi nazaridan tahlil qilishga alohida e‘tibor qaratildi.

**Tadqiqot predmetini** jahon adabiyotidagi eng yangi ilmiy-nazariy ta’limotlarning falsafiy-psixologik talqini, shuningdek, epik janrlar evolyutsiyasini o‘rganishda adabiy ta’sir, psixologizm va ijodiy xarakterga xos jihatlar tashkil etadi. Tadqiqot davomida adabiy asarlarda syujet va kompozitsiya uyg‘unligi, makon va zamon muammolari ko‘rib chiqiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyani shakllantirishda qiyosiy-tipologik, struktural, biografik, germeneytik va psixologik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

jahon adabiyotshunosligida adabiy ta’sir va uning genezisi, poetik tafakkur sarhadlarining kengayishi bilan bog‘liq tendensiyalar M.Sholoxov ijodi orqali o‘zbek adabiyotida retsepsiyaga uchraganligi aniqlanib, M.Sholoxov an‘analarining o‘zbek zamonaviy nasrida aks etish prinsiplari va badiiy psixologik talqin qonuniyatlari asoslangan;

O.Yoqubov, Sh.Xolmirzayev, O‘.Umarbekov ijodiy konsepsiyasida uchraydigan mifologiya va folklor motivlaridan foydalanishdagi parallellik M.Sholoxov poetikasiga xos shakl va mazmunga doir tajribalar, kompozitsion yaxlitlik sintezida jamlanganligi asoslangan;

hikoya janrining tadrijiy badiiy xronotop va syujet qismlari bilan uyg‘unligi portret va peyzaj asosida yuzaga kelishi dalillangan;

hikoya janrining syujetida qabarib ko‘rilgan ifoda xususiyatlari, makon va zamon evrilishlaridagi aks etishi alohida modus sifatida asoslangan.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati** tahlilga tortilgan adabiy-badiiy, ilmiy-nazariy manbalardan, izlanishning yakuniy xulosalari sifatida tavsiya etilgan materiallardan rus adibi M.Sholoxovning mahoratini aniqlashda adabiyot nazariyasi masalalari hamda o‘zbek yozuvchilari O.Yoqubov, Sh.Xolmirzayev, O‘.Umarbekov ijodiga oid tadqiqotlarda foydalanishi belgilanadi;

Tadqiqotning amaliy ahamiyati oliy ta’lim tizimidagi “Yangi o‘zbek adabiyoti”, “Jahon adabiyoti”, “Qiyosiy adabiyotshunoslik”, “Adabiyotshunoslik nazariyasi” kabi fanlardan darslik, o‘quv qo‘llanmalar yaratishda yordamchi material sifatida hamda yozuvchilar ijodi bo‘yicha alohida seminar va maxsus kurslarda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** respublikamiz hamda jahon olimlarning ilmiy-nazariy fikr va qarashlariga asoslangani, nashr qilingan tezis va maqolalar, ilmiy jurnallarda tadqiqotlar tegishli muassasalar tomonidan tasdiqlangani, dissertatsiya vazifalariga mos keluvchi, o‘zaro bir-birini to‘ldirib boruvchi tadqiqot metodlari qo‘llanilganligi dissertatsiyada ilgari surilgan amaliy taklif, tavsiya hamda xulosalarning ishonchligini ko‘rsatadi.

**Natijalarning joriy qilinishi.** Mixail Sholoxovning o‘zbek adabiyotiga ta’siri masalasi: uslub va janr uyg‘unligini tadqiq qilish hamda uning o‘zaro ta’sir doirasini aniqlash yo‘sinlarini ishlab chiqish asosida:

jahon adabiyotshunosligida adabiy ta'sir va uning genezisi, poetik tafakkur sarhadlarining kengayishini M.Sholoxov ijodi bilan bog'liq jihatlari aniqlangan va o'zbek adabiyotida M.Sholoxov an'analarning aks etish prinsiplari va badiiy psixologik talqin qonuniyatlari asoslangan xulosalaridan FA-F1, GOO2 "Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasi va 2017-2020-yillarda amalga oshirilgan FA-F1-OO5 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarish jarayonida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2023-yil 21-iyuldagi 301/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, ixtisoslik fanlarini o'qitish, malaka oshirish kurslari, shuningdek, o'zbek va rus guruhlarida o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchilarining dars samaradorligini oshirishga erishilgan;

O.Yoqubov, Sh.Xolmirzayev, O'.Umarbekov ijodiy konsepsiyasining o'ziga xos qirralari rus yozuvchisi M.Sholoxovdan olgan shakl va mazmunga doir tajribalar namoyishi kompozitsion yaxlitlik sintezida bo'y ko'rsatishi asoslangan ilmiy xulosalar 574099-EPP-1-2016-1-IT-EPPKA2-CBHE-SP raqamli "Oliy ta'lim sohasida potensialni rivojlantirish yo'nalishidagi PAWER- hududlararo mobillikni yo'lga qo'yish va bu borada dolzarflik, sifat hamda tenglikni ta'minlash" nomli amaliy loyiha mazmuniga singdirilgan (Termez davlat universitetining 2023-yil 20-iyuldagi 06/12 – 3055-son dalolatnomasi). Natijada, umumiy o'rta va oliy ta'lim muassasalari hamkorligi asosida yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatining shakllanishi va dunyoqarashini kengaytirishga imkon yaratgan. Ilmiy natijalarning qo'llanilishi ixtisoslik fanlarini o'qitish, malaka oshirish kurslari, shuningdek, ona tili va adabiyot o'qituvchilarining dars samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

O'zbek adabiyotida hikoya janrining keyingi rivoji tanqidiy realizm bilan uyg'un kechishida, shuningdek, o'zbek nosirlari asarlaridagi xronotopning mustaqil usuli sifatida M.Sholoxov poetik tamoyillari qabul qilinishini asoslashga oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ruxsatnomasi bilan chop etilgan "Теория литературы: Введение в литературоведение" ("Adabiyot nazariyasi: Adabiyotshunoslikka kirish") nomli darslikni tuzishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli "Darslikni nashr etishga litsenziya berish to'g'risida"gi 391186-son buyrug'i). Tadqiqotning amaliy natijalarini qo'llash o'zbek adabiyotida hikoya janrining keyinchalik tanqidiy realizm yo'nalishida kengayishi bilan uyg'unlashuvida namoyon bo'lgan M.Sholoxov poetik tamoyillarining qabul qilinishini asoslashga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyalari.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Natijalarning e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, shulardan, 1 ta darslik, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning hajmi 128 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmeti va obyekti aniqlangan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, tadqiqotning tuzilishi va hajmi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Adabiy ta’sir doirasida ijodkor shaxsi va an’analar sintezi**” deb nomlangan. Bobning birinchi fasli “**Ijodiy tafakkur va poetik talqinning yuzaga kelish omillari**” deya atalib unda adabiy ta’sirga doir muhim omillar hamda poetik tafakkur sarhadlari haqida so‘z yuritiladi. XX asrning 90-yillariga kelib, badiiy adabiyotda haqiqiy ahvolni yozish, inson ruhiyatiga daxldor bo‘lgan kechinmalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tasvirlash yo‘sinida ijobiy o‘zgarishlar sezildi. Bir tomondan birinchi jahon urushidan o‘tib kelayotgan tasvir metodologiyasiga bo‘lgan qiziqish, ikkinchi jihatdan Amerika, Lotin Amerikasi, Fransiya va Angliya kabi mamlakatlarning yozuvchilarining asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilinishi natijasida uslub va shakl modifikatsiyasini tubdan yangilanishiga zamin hozirladi. Darvoqe, ijodkor poetik talqinni o‘z-o‘zidan yangilashi ko‘p hollarda murakkab jarayon ekanligini yaxshi biladi. Shunday ekan, adabiy ta’sir uslub va shakl modifikatsiyasini ham tez-tez yangilash, undan tayinli tasvir predmetlarini yuzaga chiqishida katta omil bo‘lib xizmat qilishi tayin. Muhimi, izlanish va uning samaradorligini chinakam asarlar mutolaasi bilan oshirishdir. Rus adabiyotining oltin davri F.Dostoevskiy, L.Tolstoy, A.Chexov va bir qator adiblar bilan yanada taraqqiy topgan bo‘lsa, keyinchalik tanqidiy realizmning yuksak namunalarni amalda ko‘rsatib bera olgan Mixail Sholoxovning uslubiy-shakliy izlanishlarida yanada rivoj topdi. Bu rivojlanish o‘zbek adiblariga katta hayotiy maktab vazifasini o‘tagani sir emas. “Har qanday ijtimoiy-tarixiy jarayon va shuningdek, narsa-hodisalarning yaratilish, dunyoga kelish, o‘zgarish va rivojlanishiga asos bo‘lgan sabab va turtkilar bo‘lishi tabiiy bo‘lganidek, adabiy jarayondagi yangilanishlar ham muayyan tarixiy, ijtimoiy, madaniy, siyosiy, ilmiy o‘zgarishlar ta’sirida shakllanadi va taraqqiy etadi”<sup>4</sup>, – deya yozadi f.f.d. Sh.Davronova. Haqiqatan ham, bu jarayonda adabiy ta’sir masalasining birinchi omili – ijtimoiylik yo‘sinida tekshirish maqsadga muvofiqdir. Bizning adabiyotimizga G‘arb adabiy an’analari ikkinchi til – rus tili orqali kirib kelardi. Ingliz va Amerika adabiyotining yorqin namunalari rus tili orqali kirib kelgan. Sobiq ittifoq davrida tarixga va zamonaviylikka e’tiborning senzurada ushlab turilishi natijasida o‘zbek yozuvchilari bu qadar dunyo adabiyotiga kirib borishga imkonsiz edi. Bugungi kundagidek, “ochiq muhit”da bo‘lmagan adabiyot, o‘z davrida “yopiq muhit”da kun kechirishga, shu yo‘sinda izlanish olib borishga mahkum bo‘lgan. Mana shuning natijasida rus adabiyotining ta’siri o‘zbek yozuvchilari ijodida alohida

---

<sup>4</sup>Ш.Давронова. Истиқлол даври ўзбек романларида шарқ ва ғарб анъаналарининг бадийий синтези. Филол.фан.док.дисс.. –Самарқанд. 2019. –Б.28.

o‘rin egallagan. Bu to‘g‘risida so‘z borar ekan, hozirgi kundagidek badiiy adabiyot chegara bilmas darajada bo‘lmaganligi bois, “biqiq bir muhit”da kun kechirishi tabiiy. A.Oripovning “Tilla baliqcha” she‘ridagi modifikatsiya ayni shu mulohazalarimizni to‘laqonli dalolatlaydi.

M.Sholoxovning – ochiq tasvir, realistik uslubi negizida shakllangan adabiy mahorat, o‘zbek adiblarini ham o‘ziga maftun etgani sir emas. Jumladan, “Inson taqdiri” hikoyasida kuchli psixologik tarang vaziyatda inson irodasini jiddiy sinovdan o‘tkazadi. Uni ko‘pchilik adabiyotshunoslar “romanning yuki bor”ligini e‘tirof etishadi. Shunday ekan, O.Yoqubov, Sh.Xolmirzayev, O‘.Umarbekov badiiy olamida falsafiy-psixologik vaziyat birligi, xarakter yaratish yo‘sinidagi o‘ziga xosliklar, matn tuzilishi M.Sholoxov an‘analari va adabiy ta‘siri negizida yanada barqarorlashdi. Uslub jihatidan ham, mazmun va shakl yo‘sinida ham mutanosibliklar ko‘zga tashlanishi tabiiy holdir. “Inson taqdiri” hikoyasining eng xarakterli jihati o‘zbek adiblariga ta‘siri shu qadar ko‘pki, tabiatga, (peyzaj) xarakterga chuqur ma‘no yuklaydi. Hikoyada polifonik nutq va dialog nazariyasi (M.Baxtin) syujet va kompozitsion yaxlitlikni o‘ziga xos tarzda inkishof qilinishiga zamin yaratgan. “M.Baxtin talqinidagi dialog fenomeni nafaqat badiiy asar syujeti, kompozitsion qurilishi, obrazlari harakatini, balki bir butun poetik voqelik mohiyatini tashkil etadi. Uning bevosita tirik jarayon, jonli so‘z va, ayniqsa, faoliyatdagi inson bilan spiralsimon munosabatini yuzaga keltiradi. Badiiy asar dunyosida harakatlanuvchi odam obrazi doimiy vaziyatda yashaydi. Unga har qanday nutq holatida, qay shaklda (dialogik, mikrodialogik, monologik, polifonik) muloqotga kirishmasin, albatta, qarshisidagi “o‘zga” obrazini his qilib turadi”, – deya yozadi prof. U.Jo‘raqulov. Haqiqat shuki, har qanday matnda hikoya qilinayotgan voqelik ikki jihat bilan belgilanadi: yozuvchi voqelikni o‘zi hikoya qiladi, muammoni qahramon xarakteridan kelib chiqib syujet liniyalariga bog‘lab yuboradi. Mana shu mutanosiblik M.Sholoxovning “Inson taqdiri” hikoyasida urush va urushdan keyingi insoniyat boshiga tushgan mislsiz azob-uqubatlarning psixologik tarang nuqtalarda namoyon bo‘lishga sharoit hozirlaydi. Hikoya juda katta falsafiy masalalarga boy. Unda inson ruhiyatini bukib tashlovchi, ruhiy olamini yanchib yuborgudek kayfiyatni uchta obraz zimmida yuzaga chiqaradi.

Bobning ikkinchi fasli “**Adabiy ta‘sir jarayonida uslubiy-shakliy izlanishlar sintezi**” deb nomlanib, unda badiiy uslubning umumiy va xususiy qirralariga diqqat qaratildi. Prof. A.Rasulov talqinicha: “Uslub – yozuvchining adabiyotdagi betakror qiyofasi, o‘zi. Uslub – yozuvchi falsafasi in‘ikosi. San’atkor falsafasi bus-butun, teran namoyon bo‘ladigan janr esa, roman. Boshqacha aytganda, roman – yozuvchining olam va odam, zamon va makon haqidagi falsafasi, ijodkor borlig‘idagi rosa etilgan tafakkur, dunyoni anglash konsepsiyasi ko‘rsatkichi.”<sup>5</sup> Haqiqatan ham, qiyofa va shaxsning xakteri. Yozuvchi kredosini umumlashtiruvchi ko‘zgu uslubda jilvalanadi. Bu holat ko‘proq badiiy mahorat va iste‘dod bilan rivojlanib boradi. Negaki, yozuvchi hayot materialini qayta ishlaydi, tahlil qiladi, sintezlaydi. Shu jarayonda uslub va shakl uyg‘unlashadi. Mohiyat esa ijodiy fragmentlarni tartiblashtiradi.

XX asrning 30-40-yillarida badiiy adabiyotning rivojlanishi va taraqqiy etishi mavjud qoliplardan tashqarida bo'ldi. Ayni shu davrda juda go'zal asarlar yaratildi. Uslub va shakl, janriy-kompozitsion yaxlitlik sintezida ham yaqqol ko'zga tashlandi. Ikkinchi jahon urushidan keyin o'z uslubiga sodiq qolgan adiblar qatag'on qilingan, surgun qilingan va zindonband etilgandi. Bu nafaqat o'zimizda, balki boshqa davlatlarda ham ro'y berdi. M.Sholoxov shu jarayonni og'ir qabul qildi. U o'z ijod konsepsiyasiga sodiq qoldi. To'g'rilik va rostgo'ylik yozuvchi ijodining asosiy motivlariga aylandi. Bu motivlar Sh.Xolmirzayev kabi yozuvchilarning uslub va ijod ruhiyati jihatidan yuksalishiga zamin yaratdi. Prof. D.Quronov yozishicha: "Poetikaga bag'ishlangan zamonaviy adabiyotlarda nuqtayi nazarning asar kompozitsiyasidagi o'rniga alohida ahamiyat beriladi. Shunga qaramay, hali bu tushunchaga ko'pchilikni qanoatlantiradigan ta'rif berilgan emas, masalaga yondashuvlarda umumiy maxrajga keltirish lozim bo'lgan nuqtalar talaygina. Nuqtayi nazar tushunchasi, sodda qilib aytsak, roviy bilan tasvirlanayotgan voqelik o'rtasidagi munosabat asosida yuzaga keladi. Bunda ikkita jihatga: 1) voqelik qaysi nuqtadan turib tasvirlanayotgani va 2) tasvirlanayotgan narsalar kimning nigohi orqali berilayotganiga diqqat qilinadi"<sup>6</sup>. Haqiqatan ham, M.Sholoxovning tasvir yo'sini "Inson taqdiri" hikoyasidagi modifikatsiya uslub va shaklni baqarorlashtiradi. Ayniqsa, bosh qahramon tilidan aytilayotgan voqelik kecha va bugunni aniqlashda, uning zamirida yozuvchining nima demoqchiligini belgilashda muhim rol o'ynaydi:

"Yigirma to'qqizinchi yilda mashina haydashga ishqim tushib qoldi. Avtomobil haydashni o'rganib, yuk mashinasiga o'tirdim. Keyin shu ishga sho'ng'ib ketib, zavodga qaytmadim. Mashina haydash menga juda qo'l kelib qoldi. Shu qabilda o'n yil mashina haydadim va bu o'n yilning qanday o'tib ketganini o'zim ham bilmay qoldim. Xuddi tushdagidek o'tdi-ketdi. E, o'n yil nima degan narsa! Biror keksaroq odamdan: "Umring qanday o'tganligini sezdingmi?" deb so'rab ko'r-chi, nima deyar ekan. Sezgan bo'lsa o'lay agar! O'tgan umrni – huv anovi xira tuman bosgan uzoq dasht deyaver. Ertalab shu dasht bilan yurib keldim, hamma yoq tip-tiniq edi, yigirma kilometr yurdim deguncha dashtni xira parda bosdi, mana endi bu yerdan turib o'rmonni sassiq-alafdan, bug'doyzorni pichanzordan ajratolmaysan kishi...

Mana shu o'n yil davomida kechani kecha, kunduzni kunduz demay ishladim. Pulni ham yaxshigina topdim, turmushimiz boshqalarnikidan yomon bo'lmadi. Bolalarimiz ham yaxshi chiqdi: uchoviyam a'lo o'qirdi, katta o'g'lim Anatoliy matematikaga shunaqayam zehni zo'r bo'lib chiqdiki, uni hatto markaziy gazetalarga ham yozishdi. Unda bu ilmga shunchalik katta talant qayerdan paydo bo'lganiga o'zim ham hayronman, og'ayni. Quvonchim ichimga sig'mas edi, faxrlanardim, shunchalar faxrlanardimki, asti qo'yaver!"

Hikoyada polifonik nutq syujet qismlarini yanada jiplashtiradi. Qahramonning "bir yigitga qirq hunar ham oz" qabilida ish tutishi qo'l keladi. Yozuvchi inson irodasiga daxldor nimaiki bo'lsa, barcha elementlarni tartiblashtiradi. Agar yozuvchi bosh qahramonni sodda, hech narsani bilmaydigan, farosatsiz va dangasa qilib tasvirlaganida hikoyadagi ijodiy konsepsiya nima bilan yakun topardi? Albatta, asar boshidanoq fojia bilan yakun topardi. Adibning bosh maqsadi – fojiani butun

<sup>6</sup><https://quronov.uz/адабий-асар-композицияси/>

murakabligi bilan ko'rsatib berish bo'lgan. Urushning ikki avlod taqdiriga raxna solishi va fashizm otlig' jirkanch tizimdan aziyat chekkan, bu tomonda Stalin qirg'inbarotlari eshik ochib turgan pallada ikki o't orasida bukilayotgan odamlar hayotini butun murakkabligicha asosli yoritishdir. Buning yana bir muhim jihati, yozuvchi aynan alamzadalar emas, sabrli va matonatli, kibr-u havodan yiroq, farosatli odamlar obrazini gavdalantirish har qanday tahsinga sazovordir. Prof. M.Tojibaeva qayd etishicha: "Har qanday taraqqiyot u yoki bu darajada o'zigacha bo'lgan adabiyot bilan vorislik aloqalari asosida shakllanadi. Bu jihatni bir til yoki biror hudud hamda mintaqa adabiyoti misolida ham ko'rish mumkin. Bundan tashqari, ayrim ulug' daholar tajribalari, ularning ijodiy tamoyillari biror millat yoki mintaqa va adabiy muhit hududidan toshib chiqib, butun dunyo madaniyatiga o'z ta'sirini o'tkazishi ham mumkin"<sup>7</sup>. Ko'rinadiki, bir xalqning adabiy taraqqiyoti o'zidan oldingi tarixiy ildizlari bilan hamohang tarzda rivojlanadi. Bu haqida so'z yuritganda, avvalo, insoniyatning ilk sivilizatsiyasi (turkiy xalqlar genezisi)ga diqqat qaratish zarur. Poetik obrazlar, xarakterlar, kutilmagan kolliziyalar M.Sholoxov ijodining mohiyatida yagona motivlar galeriyasini namoyish qiladi. Mazkur motivlar insonning iroda yo'nalishini ham, qahramonning tabiatidagi psixikasini ham o'zida jamlaydi.

Bobning **"M.Sholoxovning badiiy izlanishlarida xarakter yaratish mahorati"** deb nomlangan uchinchi faslida badiiy xarakter va obrazlilikning yuzaga kelish omillari tadqiq qilinadi. Yozuvchi M.Sholoxovning "Toychoq" nomli hikoyasi bundan qirq yillar ilgari adabiyotshunos va tarjimon Vahob Ro'zimatov tomonidan o'zbekchaga o'girilgan. Hikoya "Sharq yulduzi" jurnalining 1985-yil, 5-sonida nashr etilgan. Yozuvchi Donlik kazaklar hayotidan olib yozgan hikoyada inson va hayvonot olamining o'ziga xosliklarini va Ot timsolini, jonivorning odamga bo'lgan mehrini, madadini yorqin bo'yoqlarda tasvirlaydi:

"Trofim o'sha tomonga bir zum qarab qo'yib, toychoqning jajjigina boshini nishonga oldi. Hovliqqanidan qo'li qaltirab ketdimi yoki o'qining xato ketishiga yana biron boshqa narsa sabab bo'ldimi, har qalay, o'q uzilgan zahotiyoyq tantiqlik bilan shataloq otib, nozikkina kishnadi-da, tuyoqlari bilan pag'a-pag'a oppoq to'zon ko'targancha aylanib kelib nariroqda turib qoldi. Trofim jiyron shaytonchaga oddiy emas, qizg'ish mis tumshuqli zirhteshar o'qlardan bir oboymasini uzdi, zirhteshar o'qlar toychoqni o'ldirish tugul, yengilroq shikast ham yetkazmaganini ko'rib, lip etib biyaga mindi-da, darg'azab so'kina-so'kina, otini lo'killatgancha, paxmoqsoqol, eskicha e'tiqod tarafdorlari uchta qizil askar bilan eskadron komandirini jar yoqasiga surib borayotgan tomonga qarab ketdi.

Shu kuni kechasi eskadron yuzagina soy yaqinidagi dashtda tunadi. Tamakini kamroq chekdilar. Otlarning egarlarini olmadilar. Don yoqasidan qaytib kelgan razyezdagilar kechuvchi dushmanning yirik kuchlari surib kelinganini aytdilar.

Yalang oyoqlarini rezina plashchining bari bilan o'ragan Trofim mudroq bosgancha shu bugungi voqealarni eslab yotardi. Ko'z o'ngidan shular birma-bir suzib o'tardi: jarga sakrayotgan eskadron komandiri, qilich bilan siyosiy komissarni chopayotgan kemshik dindor, beomon chopib tashlangan irvoqqina kazak yigitcha, kimningdir qora qonga belangan egari, toychoq...

---

<sup>7</sup>M.Tojibaeva. Жадид адиблари ижодида мумтоз адабиёт аънаналари. Филол.док.автореф. –Т.: 2018. –Б.13.

Tong otmasdan Trofimning oldiga eskadron komandiri keldi, qorong'ida yonginasiga o'tirdi"<sup>8</sup>.

Hikoyada qahramon Trofimning otning bolasiga bo'lgan mehri va g'azabi, undan ba'zan nafratlanishi, bu toychoqning qandaydir bir hikmat bilan dunyoga kelganligi haqida chuqur o'ylashlari haqida so'z yuritiladi. Toychoqning onasini emib katta bo'lishi va safga qo'shilib, bir kuniga yarashi haqida Trofim juda ko'p mulohaza yuritadi. Qishloqda bo'layotgan urush oqibatlarini har ikki tomonni (Don kazaklari) ham sarosimaga solib qo'yadi. Odamning joni, yashashi omonat bo'lib turganda – toychoq haqida qayg'urish ham Trofimga o'z hayotini chigallashtirib tashlashga yetaklaydi. Ayniqsa, mana shu taqdir qarshisida juda ko'p iztirob chekadi. Xalqning xosiyatli va xosiyatsiz hayvon bo'lishi, u ba'zan kulfat olib kelishi haqida ham mulohaza yuritadi. Bu donishmandlik oldida muzlam bo'lib, yo'lini aniq yo'qotishgacha olib keladi. Demak, M.Sholoxov o'zining ijodiy konsepsiyasida – urush va urushdan keyingi hayot manzaralarini syujetga olib kirar ekan, M.Bulgakov singari yangi zamon "mifologiyasi"ni yaratadi. Mif qarshisida esa inson hamisha irim-sirimlarga tobe bo'ladi. Ayniqsa, diniy e'tiqodi yo'q, savodi haminqadar olomon ruhiyatida bunday narsalar boshqacha gavdalanadi. Trofimning ruhiyatidagi alamzadalik kayfiyati hikoyada asta-sekinlik bilan kuchaya boradi. Hatto, komandirning bu toychoqni o'ldir-o'ldirma kabi ikkilanishda aytgan o'gitlari ham personaj kayfiyatiga jiddiy ta'sir qiladi. Jumladan, "personajlar sistemasi orqali yozuvchining inson va uning tabiat bilan o'zaro bog'liqligi, tarix va jamiyat munosabati bilan birgalikda, shuningdek, muallif tasavvuridagi insonning turli tiplari va atrofdagilar bilan o'zaro aloqasi, ularning millati, kasb-kori, tabaqasi, temperamenti, mijoz, xarakteri, tabiati, ijtimoiy mavqeyi, ruhiyati va g'oyaviy qarashi yaxlit tarzda aks etadi". Shuningdek, bu borada, ayniqsa, hikoyadek ixcham janr kompozitsiyasida voqelikni idroklashda yozuvchi turli xil tasvir usullaridan unumli foydalanadi. Mana shu tamoyil yozuvchining xarakterini o'ziga xos tarzda tasvirlash yo'sinini ham namoyon etadi. Mif – yozuvchi tasavvuri, olamining mahsuli. Har qanday davr, zamon va makonda kechuvchi voqelikni yozuvchi o'zi to'qib chiqargan badiiy haqiqatlarni, hayotiy haqiqatlarga uyg'unlashtiradi. Yunon mifologiyasidagi har xil syujetlar, tragik vaziyatlar yozuvchini yanada yuksalishga yetaklaydi. Aynan, M.Sholoxov davr manzaralarini ich-ichidan his qilgan holda yoritib beradi.

Ikkinchi bob "**Syujet va kompozitsiya yaratishda Sholoxov an'analari sintezi**" deb nomlangan bo'lib, "**O.Yoqubov nasrida badiiy obraz va uslub individualligi**" deya atalgan birinchi faslida obrazlilikning o'zbek yozuvchilari izlanishlarida yuzaga kelgan o'ziga xosliklar talqin qilingan. **Epik ko'lam va davr manzaralari talqini.** Yozuvchining "Adolat Manzili" romani timsolida adabiy ta'sirdan – ijodiy o'ziga xoslik sari tahlil qilib ko'ramiz. "Yozuvchi 80-yillar qatag'oni, uning xalq boshiga solgan kulfatlari, moddiy va ma'naviy asoratlari haqida hikoya qiladi. Adib qissa voqealar tafsilotini emas, aksincha, his-tuyg'ular tafsilotini birinchi o'ringa chiqaradi. Natijada kitobxon qissada voqealar tizimidan ko'ra ko'proq insonni, insoniy munosabatlarni ko'radi, uning ham zohiran, ham botiniy olami bilan yaqindan tanishadi"<sup>9</sup>, - deya yozadi Prof. H.Karimov. Keltirilgan

<sup>8</sup><https://ziyouz.uz/jahon-nasri/mixail-sholoxov/mihail-sholohov-toychoq-hikoya/>

<sup>9</sup>X.Karimov Adabiy portretlar. –T: "Yanginashr". 2017. –B. 62-63.

manbada munaqqid asarning – qissa deb nomlanishini tahlil qilar ekan, keyinchalik to‘ldirilgan, qayta ishlangan nashrida yozuvchi romanga aylantiradi. Aslida, epik ko‘lam va davr manzaralari negizida bu romaniy tafakkur salmog‘i kuchli. Romanning epik sharoiti, ko‘lam va vaziyat taqozosi Suyun Burgut taqdiri timsolida real mohiyat kasb etadi. Asardagi syujetga e‘tibor qaratamiz. Romanning kompozitsiyasida ham shunday adabiy qonuniyat hukm suradi:

“– Assalom, momojon. Esonmisiz, omonmisiz, Veteran bobomlar...

– Bobong-da omon... O‘zing qalaysan bolajonim! Nabiram eson-omon yuriptimi?

– Nevarangiz, Lochinjonigiz – hammasi eson...

– Esa... nega yig‘laysan? Omonliqma bolam? – dedi momo, allaqanday xatarli tuyg‘udan yuragi hamon bezillab. Momoning onalik mehriга yo‘g‘rilgan so‘zlari sim orqali ming chaqirim naridagi qizning yuragiga borib yetdi chog‘i, Marjonoy:

– Kuyovingiz Suyun akam... Suyun akamlar, – dedi-yu jimib qoldi. Qizining o‘pkasi to‘lib, o‘zi bilan o‘zi olishayotganini sezgan momo:

– Kuyovimga nima bo‘ldi? – dedi jerkinqirab. – Ovrrib qoldima?

– Og‘risa ham mayli edi, momojon... Obketishdi. Bibisora momo tushunmadi.

– Kim obketdi? Qayg‘a obketdi?

– Momojon, – zorlandi Marjonoy. – Buni telefonga aytib bo‘lmaydi. Tuhmat hammasi. Aylanay momojon bir kelib ketinglar. Veteran bobom bilan bir kep ketmasalaring... biz hammamiz bu yoqda... onasidan ayrilgan bo‘taday bo‘zlab qoldik, momojon!..

Momoning miyasida “Qamap qo‘yipma?” – degan savol chaqmoqday chaqnadi-yu suyak-suyaklarigacha zirqirab ketdi. “Qamalgan, qamalmasa... qizalog‘i Marjonoy uyasiga ilon tushgan chumchuqday chirqirayma?!”

– Ne bo‘ldi? Ochig‘ini ayt, bolam?

– Ochig‘ini aytsam... yomon! Juda yomon! Tezroq keling, kelinglar, momojon!

– Boramiz, bolam boramiz.

– Veteran bobomlar ham kelsinlar.

– Xo‘p, xo‘p, bolam. Veteran bobongni-da oldimga solib opparaman...”<sup>10</sup>

Keltirilgan parchada yozuvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri asarni tugun (kolliziya)ga qarab voqelikni siljitadi. Bibisora momoning kimligi, nima maqsadda Suyun Burgutni hibsga olib ketishi, aslida nima sabab bo‘libdiki, bunday kutilmagan ko‘ngilsizliklar ro‘y berishi o‘quvchining diqqatini tezda o‘ziga jalb qiladi. Romanning epik ko‘lamdorligi badiiy tafakkur miqyoslari bilan o‘lchanadi. Aslida, adib 80-yillarda paxta ishi va boshqa xalq xo‘jaligi ishlarida xalqimizning boshiga tushgan mislsiz kulfatlarning ildizi qayerlarga borib tutashishini teran idroklaydi. Natijada adibning ijodiy konsepsiyasi mahorat bilan ochib boriladi. Badiiy uslubdagi falsafiy-psixologik kartinalar tasviri qahramonning o‘y-xayollari, ichki iztiroblari, maqsad-intilishlarini to‘laqonli namoyon qilib boradi. O.Yoqubovning yutug‘i asardagi voqelikni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, bir davrda o‘sha odamlar bilan ba‘zan ishlashgan, boshidan kechirgan inson sifatida realistik yo‘sinda gavdalantirib berganligidadir. Roman syujeti retrospektiv yo‘sinda ochiqlanadi.

<sup>10</sup>O.Ёкубов Адолат манзили. –Т.: F.Фуллом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1996. –Б.5-6.

Bobning “**Sh.Xolmirzayev ijodida badiiy komponentlar modifikatsiyasi talqini**” deb nomlangan ikkinchi faslida Sh.Xolmirzayevning hikoya qilish san’ati talqin etilgan. Modifikatsiya – o‘zgaruvchan xususiyatga ega. Hikoya yoki roman, qissada mazkur masala turli xil darajada farqlanadi. U ijodkorning olam va odamni tasvirlashdagi tafakkur sarhadlarining chuqurligi va o‘ziga xosligi bilan belgilanadi: “**Modus** – o‘lchov, mezon, usul, yo‘l, tariqa, tarz degan ma’nolarni bildirib keladi. Predmetning muayyan holatlardagi xususiyatini ifodalaydi. **Atribut** (o‘ziga xoslik)dan shu jihati bilan farq qiladi. Spinozaga ko‘ra, modus substansiyaning barcha o‘tkinchi (ko‘chuvchi) holatlarini ifodalovchi vosita hisoblanadi. Uning borligi o‘ziga emas, substansiya va uning xossasiga bog‘liq bo‘ladi. Modusda, o‘zining paydo bo‘lishini yagona, abadiy, chegarasiz moddiy substansiyada topadigan narsalarning abadiy ko‘payuvchanligi va ko‘chuvchanlik sifati aks etadi”<sup>11</sup>, - deya “Falsafiy lug‘at”da keltirib o‘tiladi. Haqiqatan ham, jahon adabiyotida – hikoya janrining “pir”i, “ustasi” deb tan olingan ulug‘ to‘rtta yozuvchi borligini e’tirof etishadi. Bular R.Tagor, J.London, A.Chexov va A.Qahhorning poetik izlanishlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, har bir davrning adabiy priyomlari, usul va oqimlari bo‘ladiki, bular o‘sha davr ijodkorlarining estetik tanlovini dalolatlaydi. “Haqiqatan ham, turli janr, janr komponentlari, uslublar, obrazlarni gibridlashtirish orqali paydo bo‘layotgan modifikatsiya jarayoni zamonaviy adabiyot uchun xarakterli tus olmoqda. Bu holat 90-yillardan e’tiboran o‘zbek adabiyotiga ham kirib keldi. Badiiy adabiyotning qonuni, an’analar asosidagi modifikatsiyalashuv jarayoni XX asr oxiriga kelib o‘ta jadallashdi”<sup>12</sup>, - deya yozadi tadqiqotchi N.Sultanova. Buning natijasida gibridlashgan modifikatsion omillar davrning o‘ziga xos uslubini, yozuvchining konseptual qarashlarini, ijodiy olamining rivojlanish omillarini belgilaydi. Rus adibi M.Sholoxovning izlanishlariga e’tibor qaratganimizda yozuvchi – tabiat bilan inson fenomenini yaxlit bir organizm deb biladi.

Sh.Xolmirzayevning hikoyalari xususida bo‘lib, uning poetik izlanishlarida modifikatsiya hodisasi alohida diqqatni talab qiladi. O.Yoqubov ham bu haqida Sh.Xolmirzayevning “detallarini yuksak mahorat bilan namoyon qiladi. Unda tabiat va jamiyat, inson obrazi yaqqol ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi”<sup>13</sup>. Binobarin, Sh.Xolmirzayevning har bir hikoyasida badiiy komponentlar:

“Qo‘ziboy cholning kasbi betayin. Bozor kunlarida jarchilik qiladi. Xususan, moli yo‘qolgan kishilarga asqatadi: “O‘zi ola buzoq, bir pochasi qora, ikki yashar! Kimki ushlagan bo‘lsa yo ko‘rgan bo‘lsa, yo bog‘lagan bo‘lsa, o‘ttiz so‘m suyunchisi bor-ho-o!” deb baqira boshlaganda ovozi yetti mahalla nariga ketadi. Qo‘ziboy chol ana shu ishi uchun mol egasidan cho‘tal oladi. Biroq, hozir bu kasbning omadi ketgan; rayon shaharga aylanayotgani uchun aholi ko‘payib, yer tag‘in torlik qilib, tomorqalarda mol saqlab bo‘lmaydigan darajaga yetyapti. Shuning uchun molini yo‘qotib, Qo‘ziboy cholga murojaat qiladigan kishilar ham juda oz! Biroq besh-olti yildan buyon Amudaryo yoqasiga yaqin ko‘llar bo‘yida guruch yetishtirayotgan koreys o‘rtoqlar bozorga serqatnov bo‘lib qolishgan. Ular kuzda kelib yotib olishlari bilan toki qishni chiqarmay ketishmaydi! Shundoq bo‘lgach, ular qo‘shimcha

<sup>11</sup>Философский словарь. – Москва: Политиздат, 1987. – С. 290.

<sup>12</sup>Н.Султанова. Исажон Султон романларида бадий компонентлар модификацияси. Филол.фанд.док.дисс.(PhD). –Қарши: 2020. –Б.23.

<sup>13</sup>О. Ёкубов. Сўз. –Т.: Шарқ. 2019. –Б.496.

dastyorlarga muhtoj: keltirilgan qop-qop guruchlarni tushirish kerak, rastalarga joylash kerak. Vaqti-bevaqt ularga choydan qarashib turish lozim. Ishning eng qiyin va “sermahsuli” qishga qoladi. Ayniqsa, sahar paytida bozordan baralla ko‘rinib turuvchi tog‘lardan shundoq izg‘irin esadiki, toqat qilib bo‘lmaydi. Shunda beva xotin “jon olov, jon er” deganidek, sotuvchi o‘rtoqlarga kul paqirda keltirilgan lag‘cha cho‘g‘ juda ham asqatadi-da! Bu cho‘g‘ni ularga Qo‘ziboy chol qilib beradi”<sup>14</sup>.

Asar kompozitsiyasida modifikatsion birliklar – Qo‘ziboy qariya obrazini yanada teran anglashga yetaklaydi. Syujeti oddiy: kuni bozorda odamlarning xizmatini qilib, halol pul topib o‘tadigan Qo‘ziboy chol ruhiyatidagi o‘zgarishlarni boshqalar “jinni”ga, “vas-vas”ga yo‘yadi. Buning oqibatida qahramon xarakteri ochila boradi. Shuning barobarida cholning tabiatan soddaligi, ishonuvchaligi, bolaqalbligi, oliyjanoblighi ham tasvirlanadi. Bu badiiy adabiyotda – gallyutsinatsiya deb yuritiladi.

Shukur Xolmirzayevning badiiy komponentlar modifikatsiyasida tabiat tasviri alohida o‘rin egallaydi. Yozuvchining ko‘pchilik hikoyalarida quyidagi tavsifga yuzma-yuz kelamiz:

1. *Yozuvchi hikoyada prologni tabiat tasviri bilan boshlab, to‘g‘ridan-to‘g‘ri qahramon xarakteri tasviriga o‘tadi. Tugun o‘sha vaziyatda konfliktga o‘rin bo‘shatib beradi. Voqealar rivojida dialog nazariyasi kulminatsiyaga evriladi. Psixologik-falsafiy kolloziya adibning ijodiy konsepsiyasi yuzaga chiqishiga zamin hozirladi.*

2. *Sh.Xolmirzayev insonning xati-harakati orqali, o‘tmish va bugun muammosini idroklaydi. Olamning sir-asrorlarini harchand bilishga urinmasin, qahramon tabiiy yashash sharoitidan hech qachon uzoqlashmaydi.*

3. *M.Sholoxovning “shafqatsiz” realizmi negizida qahramon intellekti namoyon bo‘ladi. Adib ko‘p hollarda – hech bir xarakterni ayab, qayg‘urib o‘tirmaydi. Ular o‘z his-tuyg‘ulari oldida mahkum bir hazrati inson ekanligini bilib yashashi shart degan konsepsiya mantig‘i turadi.*

4. *Yozuvchining qahramonlarida – jamiyatdagi islohotlarni bir inson o‘laroq qabul qilish qaysarligi ham mavjud. Chunki, insonning botiniy go‘zalligi qarshisida bosh egish mumkin bo‘lgan azaliy muhabbatni tarannum qilish missiyasi oldingi planga chiqadi. Shu boisdan, yozuvchi temperamentni muvozanat bilan siljitadi.*

5. *Ma‘naviy olami boy odamning suratini tasvirlash yozuvchining birlamchi tasvir metodologiyasining o‘zi. Ayniqsa, ijtimoiy-madaniy mulohazalarni tushunib-tushunmay hayot kechirayotgan oddiy qishloq odamlari – asl insonlar ekanligini turli xil obrazlarda ko‘rsata bilish katta jasoratdir.*

Mazkur bobning uchinchi fasli **“O‘.Umarbekovning ijodida kompozitsion birliklar tizimi” Hikoyada psixologik portret tasviri** deb nomlangan. Adabiyotshunoslik lug‘atlarida keltirilishicha: “Portret (fr.portraie - tasvirlamoq) – 1) personajning so‘z vositasida tasvirlangan tashqi ko‘rinishi qiyofasi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko‘z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari), o‘quvchi tasavvurida jonlanadigan to‘laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri. P.epik asarning kompozitsion unsuri bo‘lmish tavsifning bir

<sup>14</sup><https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/shukur-xolmirzayev/shukur-xolmirzayev-qariya-hikoya/>

ko‘rinishidir. Shartli ravishda statik va dinamik P.turlari farqlanadi. Statik deyilishiga sabab shuki, P.ning bu navida personajning tashqi qiyofasi syujet voqeasi to‘xtatilgan holda ancha mufassal, detallashtirilib chiziladi. Odatda, bunday portretlar personaj asar voqeligiga ilk bor kirib kelgan pallada (mas., “Kechadagi Razzoq so‘fi portreti”) beriladi. Dinamik portret deganda esa mufassal tasvir emas, balki voqea va dialoglar tasvirida, ya‘ni harakat davomida berilib boriluvchi personaj tashqi ko‘rinishiga xos ayrim detallar nazarda tutiladi”<sup>15</sup>. Haqiqatan ham, yozuvchi O‘.Umarbekov boshqa salafлари singari badiiy portretga ham alohida mantiqiy urg‘u beradi. Masalan, “Gul sotuvchi qiz” hikoyasini olib ko‘raylik. Hikoyadagi jozibadorlik qizning ruhiy-ijtimoiy hayotini butun-murakkablighicha yoritib beradi:

“Men tez-tez Toshkentga kelib turaman. Har kelganimda u menga o‘zgacha, yangi bir shaharday tuyuladi. Har kelganimda hali men bilmagan, yoki bila olmagan go‘zalligini ko‘z-ko‘z qiladi, saxiy bag‘rini keng ochib, olis yo‘ldan kelgan farzandini quchog‘iga olayotgan otaday, meni mehr va tabassum bilan qarshilaydi. Bu mehr va tabassumni men olov taftli quyoshning serbarg daraxtlar orasidan tushib turgan nayza nurlarida, iliq shabada o‘ynatib turgan kosadek-kosadek atirgullarning yoqimli hidlarida his qilaman. Qanchalik zarur bo‘lmasin, ishimni tashlab, kamalak tus skameykalarda bir daqiqa bo‘lsa ham o‘tirgim, xuddi shunday kamalak tus yo‘lovchilarga qarab xayol surgim keladi. Ko‘pincha shunday qilaman ham. Xiyobondagi bir-biriga tutash uch favvora yoniga o‘tirib, atrofni tomosha qilaman. Xiyobon kunduz ham, tun ham tinch, osoyishta. Shu yerda hamma narsa sehrli olam og‘ushida. Daraxtlarnig ko‘pligi yo xiyobonning o‘ziga xos fazilatimi — yo‘lovchilar shu yerga kirganda yarim ovozda gaplashadilar, yarim ovozda kuladilar, boshqa ko‘chalarda quloqni kar qiluvchi ignaposhna tuflilarning taq-tuqi bu yerda eshitilmaydi. Eshitilsa ham pastki pardalardagi musiqa sadosidek sehrli, kishini allalovchi yoqimli kuydek eshitiladi. Favvora suvlarining bir ohangdagi jildirashi xayolga cho‘mdiradi. Ko‘chalarda mashinalarning keti uzilmaydi: biri yog‘och tashigan, biri g‘isht, biri tuproq. Radio ertadan-kechgacha tinmay quruvchilarni madh etadi. Qurilish shovqini, tashvishi hammaning boshida, ham-maning uyi, idorasida... Lekin xiyobon tinch, hamma narsa sehrli olam og‘ushida. Xiyobonning o‘ziga xos fazilatimi yo ulkan chodirlardek tizilib turgan bahaybat daraxtlarning ko‘pligidanmi – ko‘chalarning g‘ala-g‘ovuri bu yerga mutlaqo begona, odamlarning yurishi ham boshqacha— og‘ir, serviqor. Aftidan, shu yerga qadam qo‘yish bilan hamma shahar tashvishini, o‘z tashvishini unutadi. Sersoya daraxtlar shoxlarida bir-birlariga mahliyo bo‘lib sayragan qushlar, barglarning shitir-shitiri, ming xil shakl, ming xil rangdagi tuflilarning bir ohangdagi yengil taq-tuqi hammani o‘zga olamga, sokin hayot qo‘yniga olib kiradi”<sup>16</sup>.

Hikoya birinchi shaxs tilidan hikoya qilinadi. Asar prologida yozuvchi qahramonning Toshkentga tez-tez kelib turishi, u yerda xiyobonni aylanib, madaniy dam olishni mahorat bilan chizib beradi. Shuningdek, asarda xiyobon portreti ijodiy konsepsiya va syujet modifikatsiyasining muvofiqligini ta‘minlaydi. Demak, inson o‘zining tashqi olam va jamiyat orasidagi maqveyi, odamlar bilan muloqoti, o‘rni hamda orzu-umidlarining ushalishini istashi turadi. Hikoyadagi gul sotuvchi qizning ruhiyatidagi ajib o‘zgarishlarni, qalbidagi sohir orzularni bir so‘z bilan aytganda,

<sup>15</sup> Д. Куронов, З. Мамажонов, М. Шералиева. Адабиётшунослик луғати. –Т., “Академнашр”. 2013. –Б. 226-227.

<sup>16</sup><https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/olmas-umarbekov/olmas-umarbekov-gul-sotuvchi-qiz-hikoya/>

uning butun murakkab va iztiroblar qo‘ynida o‘tayotgan hayotini talqin qiladi. Hikoyadagi xiyobon portreti dinamik ko‘rinishda bo‘lib, yozuvchining maqsad va muddaosini to‘laqonli dalolatlaydi. Hikoyada asli qo‘qonlik o‘gay qizning achchiq qismati haqida so‘z boradi. Urush payti otasidan qoraxat kelib, o‘gay ona qo‘lida qolgan Go‘zal uyidan qochib chiqib, Toshkentda bozorda gul sotuvchi bo‘lib ishlay boshlaydi. Yozuvchi asardagi voqelikni birinchi shaxs tilidan hikoya qilar ekan, barcha tasvirlarni Go‘zal bilan bo‘lib o‘tgan suhbatlar zamirida retrospektiv syujet bilan ifodalaydi. Asardagi retrospektiv syujet Go‘zalning achchiq qismatini, uning orzulari ushalmaganini to‘laqonli namoyon qiladi. Oddiygina maishiy turmush negizida yaratilgan voqelik hikoyaning polifonik nutq tabiatini teranlashtiradi. Bir qarashda, yozuvchi ikki oila hayotidan hikoya qilar ekan, Go‘zalning shaxsiy hayoti to‘kis bo‘lmaganligini, u doim g‘amgin nigohida olam-olam iztiroblarni yashirib yashayotganligini odamlardan sir tutadi. Biroq, yozuvchi o‘z muomalasi bilan Go‘zalning botiniy dardlarini bilib, unga malham, suyanch va dalda bo‘ladi. Hikoya syujetidagi voqelik Qo‘qon-Toshkent orasida kechadi. Aytish joiz, barcha voqelik bozorda – odamlar gavjum gul do‘konida oydinlashadi. Har safar kelib, qizning ahvolidan xabardor bo‘lib turgan qahramon tabiatan insoniy munosabatlarning qadriga yetadi. Go‘zal mana shu jihatlarni o‘zida qadrlab, suhbatdoshini ham zeriktirmaydi.

Ishning uchinchi bobi **“Badiiy xronotop shakllanishida reminissensiya va adabiy sintezning roli”** deb nomlangan. Mazkur bobning birinchi fasli **“O.Yoqubov badiiy izlanishlarida makon va zamon talqini”** deb nomlanib, unda badiiy xronotopning shakl va usullari haqida so‘z boradi. Badiiy makon va zamon evrilishlari talqini. Insoniyatning taraqqiyoti va mamlakatlar, xalq va elatlarning o‘zaro ziddiyatlari, urush va qirg‘inbarotlari, kosmos va Yerning, materiyaning qiyofasi, odamlarning yashash tarzi, din, e‘tiqod, iymon, axloq va hayot tushunchasining olomonchilik kayfiyatida “hazm” qilinmasligi, rahbar va qo‘l ostidagi odamlarning bir-birlariga yov, dushman sifatida munosabatda bo‘lishi XX asrdagidek biror davrda sodir bo‘lgan emas. XX asr insoniyat tarixida ikkita jahon urushining shafqatsiz oqibatlari bilan tarixda manguga muhrlandi. Dunyo ayni asrga kelib murakkablashdi. Odamlarning yashash olami, intilishlari turfalashdi. Din va dunyo orasida sira tushunib bo‘lmas ziddiyatlar, taloto‘plar paydo bo‘ldi. Insoniyat ma‘naviy-ruhiy fojaviylik bilan jismoniy ziddiyatlar qurshovida AROSATda qoldi. Bularni o‘z asarlarida yaqqol ko‘rsatib berish uchun yozuvchilar hayotiy haqiqat va badiiy to‘qimani yuksak mahorat bilan namoyon qildi.

Badiiy makon va zamon har bir asarning syujet va kompozitsiyasini muvofiqlashtirib, ijodkor konseptual qarashlarini yanada jozibali, maromida, o‘ziga xos yo‘sinda talqin qilishga zamin hozirlaydi. XX asrning 50-yillardan keyin badiiy xronotop ikki va uch o‘lchamli olam, materiya, talqin idrokini xususiylashtirdi. Antik yunon adabiyotidagi talqin qamrovi, eposdan boshlangan idrok manerasi – epik tur janrlarining yanada xilma-xillashuviga olib keldi. O‘zbekiston xalq yozuvchisi O.Yoqubov vafotidan keyin “Kitob dunyosi” gazetasida “Rostgo‘yning hayoti” nomli hikoyasi 2014-yil, 8-oktabr sonida kitobxonlar hukmiga havola etildi. Hikoya real shaxslar hayotidan olingan bo‘lib, badiiy konsepsiya katta qamrovga ega. Mana shu hikoya timsolida adib ijodidagi makon va zamon talqinini ko‘rib chiqamiz:

“– Bu nima?

– Aroq, deydi jiyani o‘zini go‘ylrika solib.

– Aroq ekanini ko‘rib turibman! – deydi Rostgo‘y, ovozi ko‘tarib. – Ko‘r emasman, ammo aroqni qaysi pulingga olding?... Nohalol bo‘lgandan keyin aytmay-san-da! Kamina... Katta bir institutning dotsenti bo‘la turib oyiga uch yuz ellik so‘m olaman. Ikki odamni uyimga chaqirib mehmon qilishga qurbim yetmaydi. Sen bo‘lsang... yigirma quti aroq berib, ikki yuz kishini mast qilmoqchimisan! Meni kechirasan, jiyani, ammo men bunday bazm, pul deganni somunday sovurayotgan nohalol to‘yda ishtirok etolmayman. Kaminaga ruxsat berasan!

Rostgo‘yning vaziyatga mutlaqo o‘rinsiz bo‘lgan gaplaridan joni halqumiga kelgan jiyani ruxsat deb yuboradi. Bu gapdan so‘ng qarindosh-urug‘, xotin-xalajlarning jiyani kechirishini so‘rab, yalinib-yolvorishlariga qaramay olma shoxiga osilgan junujcha kostyumini yulib olib, eshik tomon yo‘naldi. Uning vazohatini ko‘rgan yigitlar ko‘chada saf tortib turgan mashinalardan birini ko‘ndalang qo‘yib: Marhamat chiqing, domla! Turkistonga olib borib, o‘zimiz poyezdga solib yuboramiz! – deganiga qaramay piyoda yo‘lga tushadi. Yaqinlari va do‘stlarining qistovi bilan jiyani uzr so‘ragani yigitlar bilan ikki mashinaga o‘tirishib, Rostgo‘y orqasidan yo‘lga tushadilar. Ular Rostgo‘yga yetvolib uzr so‘rashganda ularga qarata shunday deydi: “Hammang xalqni emas, o‘z jig‘ildonlaringni o‘ylaysanlar! Yuz so‘m maosh olib, o‘n ming so‘mga to‘y-tomosha qilasanlar! Men bunday nopok to‘ylarda ishtirok etishga or qilaman!”<sup>17</sup>

Keltirilgan lavhada yozuvchi butun umri halol, peshana teri bilan to‘plagan Rostgo‘yning xarakterini o‘tmishdan xulosa chiqarib, chuqur mulohaza yuritib yashashga undaydi. Rostgo‘y har bir narsaning qadriga yetishni, ortiqcha dabdaba va isrofgarchilik insonni ma‘naviy tubanlikka, shuhratparsatlikka va molparastlikka yetaklashini uqtiradi. Adib bu hikoyada har bir narsaga alohida e‘tibor qaratadi. Insonning ma‘naviy qiyofasi va haqiqatgo‘yligi jamiyatda halol bo‘lib yashashga to‘sqinlik qiladi.

Bobning ikkinchi fasli “**Sh.Xolmirzayev hikoyalarida xronotop turlari**” deb ataladi. Yozuvchi Sh.Xolmirzayevning poetik izlanishlarida – yo‘l xronotopi yana ikki xronotopning yorqin bo‘yoqlarda, tafsilotlarida namoyon bo‘lishini asoslaydi:

**1. Qishloq xronotopi.** Yozuvchi o‘zi tug‘ilib o‘sgan Boysun koloritini, Surxondaryoga doir sheva, milily qadriyatlar, yashash tarzi, odamlarning ruhiy-ijtimoiy xarakterini ochiq-oshkor tavsiflaydi. Bu holat rus adibi M.Sholoxovning barcha asarlarida qizil ip bo‘lib o‘tib turgan. Ayniqsa, “Tinch Don” romanida kazaklar yashaydigan qishloq, Don daryosining shovullashi, u yerdagi mahalliy aholining orzu-umidlari, maqsadlari, bir oila bo‘lib, bir-birlarining qilgan xatolarini tezda kechirib ketishi shular jumlasidandir. Negaki, Grigoriy Melexovning butun hayoti kurash, iztirob va chalkashliklar, adashishlar bilan o‘tadi. Sh.Xolmirzayev o‘zining ko‘plab qahramonlaridagi oddiy ishchi, dehqon, o‘qituvchi yoki shifokor, cho‘pon bo‘ladimi, Surxon koloriti tabiatidan kelib chiqqan holda ifodalaydi.

**2. Tog‘ xronotopi.** Tog‘ yon bag‘irlarida, adirlarda, tepaliklarda, o‘rmonzorlar tasviri – tabiatning bir bo‘lagi inson, u jamiyat a‘zosi bo‘lishi bilan eng vahshiylarning vahshiysi, jonivorlarga qiron keltiradigan bir zot sifatida talqin qilinadi. Yo‘l xronotopi – tog‘ xronotopining namoyon bo‘lishida katta vazifani

<sup>17</sup>O. Ёкубов. Рўстгўйнинг хаёти//Китоб дунёси. 2014.№8. –Б.4-6.

o'taydi: "Samar qoya oralig'idan o'tgan so'qmoqdan yurib yalanglikka chiqdi. Oy uning qoq manglayida, soyasi tomon cho'zilgan edi. So'qmoq oqarib ko'rinadi. Yo'ldan chiqmasa, u tonggacha qishloqqa tushib boradi.

Samar yaqinda xotinidan ajralib, bu yoqqa kelgan uni shahar ham o'zidan bezdirgan, bu yovvoyi tog' orasida bir-ikki oy yashashga qaror qilgan edi. Bir oqshom garovda yutqazib, aroqqa chuv tushdi. Do'stining e'tiroziga ham qaramay yo'lga chiqdi. Mana, yarim kechadan oshganda cho'ponlar ovuliga qo'ndi, chalob qovurdoq yedi va ularga rahmat aytib, yana yo'lga tushdi.

Samar yalanglik o'rtasiga yetib, ortiga o'girilib qaradi, endi cho'ponlarning iti ovozlari ham eshitilmas, o'tovi oldidagi gulxandan sachrayotgan uchqunlar ham tun qatiga yutgan edi. Atrof jimjit, sirli sokinlik qo'ynida. Uzoqda ukki sayraydi"<sup>18</sup>.

Hikoyada Samar va Hidoyat orasidagi dialog negizida badiiy makon va zamon talqin qilinadi. Samarining "nima"dandir bezovta qizning hayoti, g'amgin o'tayotgan kunlari, shaxsiy iztiroblari tarannum qilinadi. Hikoyada yozuvchi voqelikka birdaniga o'tmaydi. Chunki hikoyada sodir bo'layotgan voqelik qaysi makondaligini aniqlashtirib boradi. Bu makon hikoya qahramonlarining ruhiyatidagi o'sish-o'zgarishlarni namoyish qilib, ularning tabiatidagi o'ziga xosliklarni ifodalaydi. Hikoyadagi shahar va qishloq xronotopi – uchrashuv xronotopiga keng sharoit hozirlaydi.

Bobning uchinchi fasli **“O‘.Umarbekovning hikoyalarida ruhiy tahlil va makon birligi”** deb nomlangan. “Psixologizmning turlicha formalari mavjud. F.M.Dostoevskiy va L.N.Tolstoy, bizning asrimizga kelib – M.A.Sholoxov, U.Folkner, Abdulla Qodiriylar ijodiga oshkora, ochiq, “namoyishkorona” psixologizm xos. Ayni paytda XIX–XX asr yozuvchilari inson ichki olamini o'zlashtirishning yana boshqa usuliga ham tayanishadi. Bu o'rinda I.S.Turgenevning so'z rassomi “yashirin” ruhshunos bo'lishi lozimligi haqidagi fikrlari ahamiyatlidir. Adib asarlarining qator epizodlari uchun gapirib bo'linmaganlik va aytib bo'linmaganlik xarakterli ekanligi ham shundan bo'lsa, ajab emas. Qahramon ongidagi o'ylar, impulslar, hislar bor-yo'g'i biroz seziladigan maxfiy, “matn ostida” yashiringan psixologizm A.P.Chexov va A.Qahhor qissalarida, hikoyalarida ko'proq uchraydi”. Haqiqatan ham, XX asrning birinchi yarmida yaratilgan aksariyat asarlar F.Dostoevskiy va L.Tolstoy boshlab bergan an'analarni mantiqiy davom ettirdi. Shuningdek, M.Sholoxovning badiiy izlanishlarida badiiy psixologizmning formasi urushdan keyingi hayot manzaralari bilan sug'orilgan odamlar timsolida ham yanada chuqurlashdi. M.Sholoxovdan ta'sirlangan o'zbek yozuvchisi O'.Umarbekovning 60-yillarida yozgan qator qissa va hikoya, romanlarida mana shu jihatlar yanada qabarib ko'rindi.

Yozuvchi O'.Umarbekovning “Nomus” nomli hikoyasidagi tasvir ekzistentsiyasi rus adibi M.Sholoxovning uslubiga xos badiiy makon va zamonning o'ziga xos tarzda yuzaga chiqishiga imkon beradi:

“Advokat xonaga shoshib ko'z yugurtirdi, eshikka qaradi. Hech kim yo'qligiga ishonch hosil qilgach, Zumradga o'girildi:

– O'sha kuni, shu xunuk voqea yuz bergan kuni, u ... ya'ni Komil siz bilan bo'lgan...

<sup>18</sup><https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/shukur-xolmirzayev/shukur-xolmirzayev-oy-yorugida-hikoya/>

Zumradning ichida bir narsa uzilgandek bo'ldi.

– Qaysi kuni? — bo'g'ilib so'radi u.

– Shu yil 18-may kuni. Komil shunday dedi. Mana o'z qo'li bilan yozgan qog'oz.

Zumrad beixtiyor advokat uzatgan qog'ozni oldi, lekin o'qimadi, bo'shshib stul suyanchig'iga o'zini tashladi. Uning peshanasi, labining ustini ter qoplagan, ko'z oldi qorong'ilashgan edi.

– Sizga nima bo'ldi? – shoshib so'radi advokat.

– Hech nima, – dedi sekin Zumrad va ko'zlarini yumdi. ... Mana, bir kunlik quvonch, bir kunlik baxtning oqibati... u, negadir, shunday bo'lishini, xunuk bir voqea yuz berishini sezgan edi, lekin bu voqea shunchalik tez va shunday xunuk namoyon bo'lishini kutmagan edi.

U Komilni yaxshi ko'rardi, bir ko'rishdayoq yaxshi ko'rib qolgan edi. Qish edi o'shanda. Qor gupillab yog'ar, avtomat cho'tka trolleybus oynasini tozalab ulgurolmas edi. Peshinda boshlangan qor kechgacha tinmadi, qaytanga zo'raydi. Oldinda hech narsani chiroq yoqib ham ko'rib bo'lmay qoldi. Beshyog'ochdan o'tganda, duga chiqib ketdi. Zumrad dugani solib, trolleybusga chiqqanida antiqa kubanka kiygan bir yigitdan boshqa hech kim yo'q edi.

Yigit unga qarab jilmaydi.

– Sizdan qo'rqishdi, – dedi u.

– Siz-chi? – kinoya bilan so'radi Zumrad. – Qo'rqmaysizmi?

– Sizni yolg'iz tashlab ketishdan qo'rqaman.

Yozuvchi hikoyada ikki dugona Zumrad va Muniraning hayotini tasvirleydi. O'z nomusiga tekkan bo'lsa ham Komil ismli sevgilisining bezorilik qilib qamalib ketishining oldini olib, guvohlik beradi. Nomardga – mardlarcha javob bergan Zumrad parkda birga ishlagan hech kimi yo'q Munirani o'z ijara uyiga sheriklikka oladi. Zumradning onasi Risolat opa do'sti Muniraga ham o'z farzandidek munosabatda bo'lib, birga yashay boshlaydi. Bularning qalinligi shu qadar bo'ladi, har qanday vaziyatda bir-birlarini himoya qilib, bir-birlariga yordam berib yashay boshlaydi. Yozuvchining ijodiy konsepsiyasi bir yillar ichida bo'lib o'tgan voqelik – talabalar hayotidan olib yozilgan. Yozuvchi hikoyalarida or-nomus, yoshlar tarbiyasi alohida o'rin egallaydi. Zumradning samimiyligi, o'ziga nisbatan talabchanligi, to'g'ri so'zligi va xushmuomalaligi uy egasini ham, ish jarayonida hamkasblarini ham, dugonasi Munirani, sevgilisi Komilni ham birdek hayratga solib, ularning yuksak ishonchini qozonishga musharraf bo'ladi. Zumrad orasta va chiroyli, xushmuomala qiz bo'lgani uchun ham, o'zgalarni o'zidek ko'rishi sababli juda ko'p vaziyatlarda og'rinib qoladi. Birovga zinhor yaxshilik qilishdan qaytmaydigan qiz xarakteri, ruhiy olami – kechira olishlik qobiliyatining nihoyatda ustun ekanligini to'laqonli dalolatlaydi.

Umuman olganda, yozuvchi O'.Umarbekovning poetik izlanishlarida makon va zamonda kechuvchi voqelik – ruhiy talqin birikuvini hosil qiladi. Uning mohiyatida aks etgan hayot falsafasi insoniy fazilatlar yig'indisini qamraydi. Inson hamisha o'z ustida muntazam izlanish olib bormasa, uning foydali tomonlari kam bo'lishini bugungi kunimiz, jarayonlar ham isbotlab turibdi. Zero, davr yaratgan qahramonlar haqqoniy tasvirga olinsagina, u asrlar osha yashashga haqli.

## XULOSA

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda tadqiqot bo'yicha quyidagi xulosaga kelindi:

1. XX asr – har tomonlama taraqqiyotga yuz tutgan davr bo'ldi. Ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy jabhada olib borilgan yangilanishlar muntazamligi natijasida hamda ikkita jahon urushining qisqa vaqt oralig'ida sodir bo'lishi butun insoniyat taraqqiyotini tez sur'atlarda rivojlantirishga, ayrim xalqlar va millatlarni o'zidan kuchli davlatlarga mute va qaram bo'lishiga olib keldi. Negaki, insoniyat koinotga ham, dengiz tubiga ham, texnologik rivojlanishda ham jadal rivojlanish pallasiga qadam qo'ydi. Shunday ekan, badiiy adabiyotning – ta'sir nuqtalari ham o'z-o'zidan davrning ijtimoiy-iqtisodiy o'sish suratlariga borib tutashadi. Buni hayotning o'zi isbotlab turibdi.

2. Taniqli yozuvchi, Nobel mukofoti sovrindori, tinchlik va do'stlik kuychisi Mixail Sholoxov adabiyotda “shafqatsiz realizm” metodining ranginlashuvida katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Hikoyadan boshlagan adib ijodiy konsepsiyasi epik masshtabda tetralogiya janrining ham taraqqiy etishida katta ibrat maktabini o'tay boshladi. Mana buning yorqin namunasi “Inson taqdiri”, “Toychoq” va “Tinch Don” nomli hikoyalar, romanlari hisoblanadi. M.A.Sholoxov insonga inson sifatida munosabatda bo'lishni xohlaydi. Erkin va farovon hayot kechirish har bir millatning asosiy maqsadi bo'lishi lozimligini ichi-ichidan xohlashi ko'rinib turadi. Yozuvchi ayni shu jihatlarni o'z asarlarida sinab ko'rdi.

3. Adabiy ta'sir antik yunon ma'rifati zamiriga borib tutashuvini inobatga olsak, masala mohiyati yanada oydinlashadi. Shunday ekan, insonning botiniy olamini “kashf” qilish, uning orzularini ro'yobga chiqarish uchun har qanday vaziyatda ijodkor o'z ustida mukammal izlanmog'i kerak. Shunday yozuvchilardan biri O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubovdir. Odil Yoqubov badiiy izlanishlarida badiiy tafakkur miqyoslarining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. To'g'ri, yozuvchi asarlari o'sha davr hayotining chirkin manzarasini namoyon qiladi, biroq ayrim asarlaridagi badiiyat esa mafkura ta'sirida baland ko'tarila olmaganligini dalolatlaydi. Ch.Aytmatov bilan bir davrda ijod qilsa-da, yozuvchining ko'plab hikoya va qissalaridagi, romanlaridagi poetik qiymat boshqa xalqlar uchun ham muhim bo'lishi kamdan kam hollarda uchraydi. Shunday bo'lsa-da, yozuvchi o'z missiyasini bajarishga erishdi. Demak, yozuvchining yaratgan obrazlari “Adolat manzili”, “Ulug'bek xazinasini”, “Ko'hna dunyo” kabi romanlarida jiddiy munozaralarning yuzaga chiqishida muhim ahamiyat kasb etishi tayin.

4. Shukur Xolmirzayev o'zi haqli ravishda e'tirof etganidek, “M.Sholoxovning badiiy olami benihoya kengdir. Undan bahra olish ham bir yozuvchi uchun ijodiy yuksalishni tuhfa qiladi” deydi. Demak, yozuvchi Sholoxov an'anasiga ergashgan. O'zining badiiy olamini, insoniy go'zallikning hali biz anglamagan jihatlarni yuzaga chiqargan. Buning natijasida, adib o'z ustida muntazam izlanish olib borgan. Shuni qayd etish joizki, Shukur Xolmirzayev yaratgan qahramonlarning qariyb to'qson foizi tog' va dasht, qishloq odamlaridir. Adib asarlaridagi badiiy kompozitsiya – shahar va qishloq orasida ro'y bergan voqelikni qamraydi. Bu jihatlarda yozuvchining uslubiy-shakliy individualligini belgilashda muhim omil sanaladi.

5. O'.Umarbekovning hikoyalarida – yoshlar ma'naviyati birinchi o'rinda turadi. Ijtimoiy-maishiy muammolarni yurakdan his qilgan yozuvchi modifikatsiyasida

syujet va kompozitsion yaxlitlik sintezini ko‘ramiz. Yozuvchi o‘z hikoyalarda kuchli ijtimoiy tazyiqqa uchragan qahramonlarni tasvirlab emas, ularning tarbiyaviy munosabatlariga ham oydinlik kiritib boradi. Buning yorqin natijasi o‘laroq, badiiy shaklning konseptual negiziga e‘tibor qaratadi. Yozuvchi M.Sholoxovning “Tinch Don” romanidagi liro-epik ko‘lamni jiddiy o‘zlashtiradi. Ba‘zan samimiy ifodalasa, ayrim hollarda yozuvchi o‘ta realist va shafqatsiz tasvir priyomlarini yagona estetik markazda uyushtiradi.

6. Odil Yoqubovning “Adolat manzili” romanida mifo-poetik talqin ustuvorlik qiladi. Asarda tush va uning syujet rivojidadagi o‘rni Bibisora hamda Veteran timsolida ochiq lanadi. Marjontov afsonasini azim folklor an‘analariga tutashtiradi. Yozuvchi retrospektiv usulda badiiy niyat ko‘lamini kengaytiradi. Natijada, mono-dialogik nutq tabiati ranginlashadi. Suyun Burgutning nohaq qamalishi natijasida roman voqealari yanada jadallashadi. Marjonoyning botiniy iztiroblari va chekkan zahmatlari asar qahramonlarining ruhiyatiga qattiq ta’sir qiladi. Adib polifonik nutq negizida roman badiiy to‘qimalari komponentlarini muvofiqlashtiradi.

7. Sh.Xolmirzayev “O‘zbek xarakteri” singari hikoyalarda Surxon koloritini ustalik bilan ochib beradi. Chapani va sodda, ishonuvchan va beg‘ubor insonlar qismatini, paxta yakkahokimligning ayovsiz dolg‘alarini sinchkovlik bilan tartiblashtiradi. Botir cho‘pon va talabalarning ikkiyuzlamachilik manfaatiga qurilgan munosabatlari – xarakter tabiatini taqozo etadi. Aslida, mardlik va oliyjanoblik tuyg‘ularining hikoya arxitektonikasida aks etishi yozuvchining ijodiy kredosini belgilaydi. M.Sholoxovning portret va peyzaj tasviri modusi Sh.Xolmirzayev ijodining asosiy atributlaridan biri ekanligi ayonlashadi.

8. O‘lmas Umarbekov – XX asr hikoyachiligida jahonning ilg‘or tasvir metodologiyasidan unumli istifoda etganligi bilan qadrlidir. Mashhur hikoyanavislarning shakliy-uslubiy izlanishlari poetik konstruksiyani ranginlashtiradi. Ijodiy tafakkur va yozuvchi fitrati inson irodasi yo‘nalishini belgilaydi. Jumladan, “Gul sotuvchi qiz” hikoyasida urushning dahshatli manzarasini haqqoniy ifodalash bilan bir qatorda o‘zbek xalqining sabr-matonati, oilaviy muammolar inson irodasini bukib qo‘yishigacha borishi o‘z ifodasini topgan. To‘g‘ri, asarlarida katta umumlashma syujet chiziqlari ko‘rinmaydi. Yozuvchi liro-epik tasvir ekzistensiyasi qahramon irodasi yo‘nalishini aniqlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilishi tayin.

Umuman, rus adibi Mixail Sholoxov badiiy olami o‘zbek va qardosh xalqlar adabiyotiga shakliy-uslubiy, g‘oyaviy-tematik jihatdan ta’siri XX asrning 50-yillariga to‘g‘ri keladi. Insonshunos yozuvchi do‘stlik va tinchlik kuychisi M.Sholoxovning asarlarida tinchlikni qadrlash, oliyjanob xislatlarning tarbiyaviy ahamiyati to‘g‘risida hikoya qilinadi. XX asrning ikkita yirik jahon urushining dahshatli manzaralarini yangicha shaklda anglash manerasi bugun ham har xil metaforik talqin yaxlitligini namoyon qilmoqda. Shuni qayd etish lozimki, insoniyat hech bir davrda o‘z “qobig‘i” zamirida rivoj topmaydi. Mana shu tamoyilning konseptual ahamiyat kasb etishi xalqlar o‘rtasidagi adabiy-badiiy aloqalarning modifikatsion manzarasini to‘laqonli dalolatlaydi.

**УЧЕНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ УРГЕНЧСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ  
БЕРДАХА**

**ИСМАИЛОВА ХУРЛИМАН НАЖИМАТДИНОВНА**

**ВЛИЯНИЕ МИХАИЛА ШОЛОХОВА НА УЗБЕКСКУЮ ЛИТЕРАТУРУ:  
СТИЛЬ И ЖАНРОВАЯ ГАРМОНИЯ**

(на основе творчества О.Якубова, Ш.Холмирзаева, У.Умарбекова)

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное  
языкознание и переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО  
ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ургенч-2023**

**Тема докторской диссертации (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2023.2.PhD/Fil3492.**

Диссертация выполнена в Каракалпакском государственном университете имени Бердаха.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (jsri.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

<b>Научный руководитель:</b>	<b>Ботирова Шахло Исамиддиновна</b> доктор педагогических наук, профессор
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Эрметова Джамиля Исмаиловна,</b> кандидат филологических наук, доцент  <b>Бобохонов Мавлон Рахматуллаевич,</b> доктор филологических наук, доцент
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Самаркандский государственный институт иностранных языков</b>

Защита диссертации состоится на заседании Ученого совета PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 при Ургенчском государственном университете «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 г. в «\_\_\_\_\_» часов. (Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Х.Олимжона, дом 14. Тел.: (99862) 224-67-00; факс: (99862) 224-67-00, e-mail: [www.fil-ik.urdu.uz](http://www.fil-ik.urdu.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ургенчского государственного университета (зарегистрирован под номером № \_\_\_\_\_). Адрес: 220100, г. Ургенч, ул. Х.Олимжона, дом 14. Тел.: (99862) 224-67-00; факс: (99862) 224-67-00, e-mail: [www.fil-ik.urdu.uz](http://www.fil-ik.urdu.uz).

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года.

(протокол реестра № \_\_\_\_\_ от \_\_\_\_\_ 2023 года).

**З.Д.Дусимов**  
председатель Ученого совета по  
присуждению ученой степени,  
д.филол. наук, профессор

**С.С.Атажанов**  
ученый секретарь Ученого совета  
по присуждению ученой степени,  
д.ф.ф.н. (PhD)

**А.Д.Уразбоев**  
председатель Научного семинара при  
Ученом совете по присуждению ученой  
степени, д.филол. наук (DSc), доцент

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировой литературе естественно возникает синтез литературных влияний, который оказывает влияние на поэтику различных жанров, придавая им своеобразие по жанрово-композиционным особенностям. Литературные стереотипы, происходящие из древнегреческой культуры и других национальных литератур, способствуют обновлению семиотических метафор. Концепция познания человека не возникает сама по себе, а эволюционирует под влиянием поэтических интерпретаций, которые формировались веками и питались русскими литературными традициями. Феномен поэтической модификации, начавшийся в 50-х годах XX века, играет важную роль в создании особенностей сюжетно-выразительных элементов жанров повести, рассказа и романа. Гармония между формой и содержанием, основанная на идейно-концептуальной точке зрения, является важным фактором в этом процессе. В результате расширяется сфера влияния русской литературы на узбекских писателей.

Современный мир стремится к постоянному обновлению художественных традиций в контексте глобальных проблем. Писатели используют поэтическую матрицу для анализа человеческого феномена, существующего на стыке древности и вечности. В настоящее время художественное восприятие применяется для восстановления исторических традиций и эксперимента с ключевыми факторами, считающимися важными в архитектонике литературного произведения. Развитие мысли и духовной силы в обществе стремится к гармонии философии жизни и единства веры, которые отражаются в сюжетах художественных произведений. Результатом синтеза важных аспектов, направленных на высшее понимание мира, в образных линиях от повести к рассказу и роману, является обобщение, подготавливающее почву для дальнейшего развития интеллектуального потенциала писателя. Произведения искусства подтверждают, что человек живет, руководствуясь своими убеждениями, в привычном стиле жизни. Очевидно, что творческое своеобразие литературного воздействия ярко проявляется в поэтических исследованиях узбекских писателей.

Действительно, заслуги Михаила Шолохова в развитии узбекской литературы неоспоримы. Его литературное наследие оказало огромное влияние на узбекских писателей, таких как Одил Якубов, Шукур Холмирзаев и Улмас Умарбеков. В творчестве этих авторов особенно заметен художественный пафос и психоаналитические аспекты, которые были вдохновлены творчеством Шолохова. Единство личности и общества, отраженное в их произведениях, играет важную роль в формировании характера и мировоззрения читателей. Ибо, «...мы не вправе забывать, что внимание к литературе, искусству и культуре – это, прежде всего, внимание к нашему народу, внимание к нашему

будущему, а как сказал наш великий поэт Чулпон, если живы литература и культура, может жить и нация...»<sup>19</sup>.

Михаил Шолохов был важным фигурантом в литературной истории XX века и его работы действительно прославились благодаря гуманистическим идеям, которые он вкладывал в свои произведения. Его особый стиль в описании войны и ее последствий оказал значительное влияние на многих писателей, включая узбекских авторов Одила Якубова, Шукура Холмирзаева и Улмаса Умарбекова. Исследование этого влияния, их стилевой методологии и компонентов поэтической модификации представляет собой актуальную тему, которая способствует лучшему пониманию развития литературного процесса в Узбекистане и его связи с мировой литературой.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит исполнению задач, определенных в Указе Президента Республики Узбекистан ПУ-№4947 от 17 февраля 2017 года «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», Указе ПУ-№4958 от 16 февраля 2017 г. «О дальнейшем совершенствовании системы образования после высшего образования», Указе ПУ-№5847 от 8 октября 2019 г. «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистана до 2030 года», Постановлении ПП-№3271 от 13 сентября 2017 года «О программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению и развитию книжного чтения и культуры чтения», Постановлении ПП-№3775 от 5 июня 2018 года «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших учебных заведениях и обеспечению их активного участия в комплексных реформах, реализуемых в стране», в Постановлении ЗРУ-576 от 29 октября 2019 года «О науке и научной деятельности» и других нормативно-правовых актах, связанных с данной деятельностью.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Пути формирования и реализации системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

**Степень изученности темы.** Множество исследований в сфере влияния и художественной индивидуальности литературных произведений было проведено всемирно известными философами и литературоведами. Одним из ключевых произведений, оказавших влияние на исследования в области эпических литературных жанров, считается «Поэтика» древнегреческого философа Аристотеля. В русском литературоведении психоаналитические исследования проводили такие ученые, как А.А. Потебня, Д.Н. Овсянко-Куликовский, А.Г. Грофед, Л.С. Виготский, М.М. Бахтин. Среди других

---

<sup>19</sup> Ш.М. Мирзиёев. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустахкам пойдеворидир // Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 3 августдаги Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси. <https://kknews.uz/uz/1715.html>

